E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

BO`LAJAK FIZIKA FANI O`QITUVCHILARI METODOLOGIK TAYYORGARLIGIGA OID INNOVATSION YONDASHUVLAR

Janabergenova Gulnaz Jaksilikovna
Nukus davlat pedagogika institute

Annotatsiya: Ma`lumki, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini metodik tayyorlashga innovatsion yondashuvni joriy yetish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada o‘quv jarayonini tashkil yetishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va innovatsion pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlari bayon yetilgan.
Kalit so‘zlar: Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, vakolati.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarning shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”[1] – deb aytgan fikrlari ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma’naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fan, texnikasi va innovatsion texnologiyalarining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim-tarbiya tizimini, shuningdek, milliy pedagogika va innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodik asoslarini yaratish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati milliy ta’lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga olib chiqish, ta’lim bozorini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash kerak.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini boshqarishdagi o‘qituvchi kompetensiyasi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning bu majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini va asosiy talablarini ifodalay olishi kerak:

- o‘qituvchining ta’lim berish mahorati, tarbiyalay olish mahorati, ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahoratini bilishi kerak;
- o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda innovatsion pedagogk texnologiyalardan foydalanishni bilishi kerak.

Zamonaviy ta’lim taraqqiyotida paydo bo‘layotgan “Innovatsion yondashuv”, “Innovatsion faoliyat”, “Innovatsion pedagogika” tarzdagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo‘lib, ularning maqsadi ta’lim sohasidao‘quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o‘zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat [3].

“Innovatsiya” (inglizcha “innotion”) – yangilik kiritish, tatbiq etish, qo‘llash degan ma’nolarni bildiradi. “Innovatsiya” tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo‘lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushinilgan. XX asrga kelib esa, yangi soha – yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo‘ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatlari o‘rganila boshlandi.

Bugungi kun ta’lim tizimida fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishida bakalavr o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy bilimlar bilan qurollangan amaliy malaka va ko‘nikmaga ega mutaxassislar tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlagan holda ularda innovatsion ta’lim texnologiyalarini singdirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Innovatsion (noan'anaviy) o'qitish metodlar- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, ularni faol va interfaol turlariga bo'linadi.

An'anaviy metodlar – ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan va ta'lim oluvchilar nisbatan passiv ishtirok etadigan metodlar [2].

O'qitish tizimida qo'llanayotgan turli texnologiyalar bilan bir vaqtda milliy qadriyatlarga asoslangan "Milliy model"ni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning zamirida uzoq yillik tarixiy–ilmiy, pedagogik tajribaga ega bo'lgan shakllanib kelgan ta'lim texnologiyasidan foydalanish bizning fikrimizcha, o'zining istiqbolini ta'minlashiga shubha yo'q. Shu asosda bo'lajak bakalavr o'qituvchilarini tayyorlash zamon talablariga javob bera oladigan kasbiy mahorat, izlanuvchanlik hamda tashabbuskorlik kabi xislatlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga o'z fanini chuqur bilishi, bu fanning rivojlanish istiqbolini tahlil qila olishi hamda o'z bilimlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'rgatish ko'nikmalariga ega bo'lishi, har doim mustaqil ishlab bilim va malakasini zamon talabi asosida oshirib borishi zarur. Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda fizika darslarida fan o'qituvchisining o'z mashg'ulotlarini pedagogik an'anaviy usullarda, interfaol metodlarda maqsadli ravishda olib borish ta'limning samaradorligini oshiradi.

Innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Funksional imkoniyatlariga qarab, barcha pedagogik innovatsiyalar: yangiliklar samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydigan shartlar (ta'limning yangi mazmuni, innovatsion ta'lim muhitlari, ijtimoiy-madaniy sharoitlar); yangilik – pedagogik vosita, texnologik ta'lim loyihalari va hokazo; tashkiliy boshqaruvga oid yangiliklar (ta'limning sifatli xizmat qilishini ta'minlaydigan yechimlar).

2.Innovatsiyalarni amalga oshirish va tatbiq etish sohasiga qarab: ta'lim mazmunida; o'qitish texnologiyalari, ta'lim tizimining tarbiyaviy sohasida; pedagogik jarayon qatnashchilari o'zaro ta'siri tizimida, pedagogik vositalar tizimida.

Tizimli innovatsiyalar – bu muayyan muammo doirasidan kelib chiqadigan, aniq maqsad, vazifalarga ega innovatsiyalardir. Bular o'qituvchi va bo'lajak fizika o'qituvchilar qiziqishlari asosida tuzilib, uzviylik xarakterga ega bo'ladi. Bunday innovatsiyalar puxta tayyorlanib, ekspertlardan o'tadi va zarur vositalar bilan ta'minlanadi (kadrlar, moddiy, ilmiy-metodik ta'minot)[5].

Innovatsion jarayonning mohiyati – o'qituvchi va bo'lajak fizika o'qituvchilarining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi; mazkur jarayonda pedagog bo'lajak fizika o'qituvchilariga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati innovatsion uslubning tavsifi, uning maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining shaxsiy hislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatidan quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi turlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari va qoniqish, o'zining ijtimoiy roli funksiyasini bajarishda faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lajak fizika o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish bo'lajak fizika o'qituvchilarining o'quv jarayonin faollashtirishni, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini yaratuvchanlik jarayoni va ijodiy faoliyat sifatida baholash mumkin. Innovatsion faoliyatgaaksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, u tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida

qaraydi.

O‘qituvchi va bo‘lajak fizika o‘qituvchisi o‘rtasidagi muloqat namunasining o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an’analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysinish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarining hamkorligi, o‘zaro boshqarilishi, o‘zaro yordam shaklida qurilgan bo‘lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o‘qituvchi va bo‘lajak fizika o‘qituvchisining ijoddagi hamkorligidir.

Xulosa va munozara

O‘qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatning ongli tahlili; me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga ijodiy yaratuvchanlik munosabatida bo‘lish; uz imkoniyatlarini ruyobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o‘qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent 2017, 45-bet.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997, 3-bet.

3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: TGPU im. Nizami. 2013.

4. Rashidov, D. (2022). IJTIMOIY EHTIYOJMAND TOIFAGA MANSUB SHAXSLARNI TRANSPORT KORXONALARIDA ISHGA JOYLASHTIRISH UCHUN ISH O ‘RINLARINI ZAXIRALASH. Scienceweb academic papers collection.

5. Erkaboeva N. Yangilangan fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo‘nalishlari.// Xalq ta’limi, 2015 yil, 6-son, 19-20 betlar.

6.Janabergenova, G. (2022). MAKTAB FIZIKA KURSIDA OPTIKA BOLIMINI OQITISH TENDENSIYALARI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *2*(2), 359-363.

7.Janabergenova, G. (2021). OPTIKA BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, *1*(5), 460-464.

8. Gulnaz, J. (2022). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING OPTICS IN SCHOOL PHYSICS COURSE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(02), 80-84.

9.Jumabayevna, J. Z., & Jaksilikovna, J. G. (2022). SOME PROBLEMS OF MODERN ANALYSIS OF THE CONTINUITY OF THE CONTENT OF THE PHYSICS COURSE PROGRAM OF THE SYSTEM OF GENERAL AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION. *Eurasian Journal of Academic Research*, *2*(2), 359-363.

10.Bazarbayev, R. B., Yakubov, K. R., Kurbanov, D. S., Allaniyazov, A. I., Balakumar, S., Kamalov, A. B., ... & Karazhanov, S. Z. (2022). Performance of crystalline Si solar cells and module on temperature and illumination intensity. *Materials Today: Proceedings*, *64*, 1661-1665.

11.www.ziyonet.uz